ılmBAZA

PhD taqdimotini o‘zingiz tekshiring

Komissiya qaraydigan mezonlar asosida. Har bir bajarilgan shart uchun katakni belgilang: 100 balldan qanchasini ola olishingiz ko‘rinadi.

Qanday ishlatiladi

Bu varaqa topshirishdan oldin o‘zingizni tekshirish uchun. Komissiya o‘z shaklini to‘ldiradi va tashkilot boshqa mezon belgilashi mumkin, shuning uchun talablarni o‘qishga kirayotgan tashkilotdan aniqlashtiring.

Ko‘rsatkich	Nimalar bo‘lishi kerak	Ball
1. Mavzuning dolzarbligi va o‘rganilganlik darajasi		**20**
1.1 Ilmiy muammo	☐ Aniq muammo yoki masala nomlangan ☐ U qaysi obyekt, jarayon yoki holatga tegishliligi aytilgan ☐ Hozirgi holatdagi hal bo‘lmagan jihat yoki cheklov ko‘rsatilgan ☐ Nega qo‘shimcha tadqiqot kerakligi asoslangan	___ / 4
1.2 Dolzarblik	☐ Ilmiy, statistik yoki tahliliy dalil keltirilgan ☐ Dalilning manbasi ko‘rsatilgan ☐ Dalil aynan shu muammoga bog‘langan ☐ Dalildan tadqiqot ahamiyati kelib chiqqan	___ / 4
1.3 O‘rganilganlik darajasi	☐ Mahalliy tadqiqotlar natijalari bor ☐ Xorijiy tadqiqotlar natijalari bor ☐ Manbalar mavzuga bevosita tegishli ☐ Asosiy natija yoki yondashuvlar ajratilgan ☐ Ular o‘zaro taqqoslangan ☐ Tahlildan umumlashgan xulosa chiqarilgan	___ / 6
1.4 O‘rganilmagan masala	☐ Yetarli o‘rganilmagan aniq masala nomlangan ☐ U manbalar tahlilidan kelib chiqqan ☐ Asosiy muammo bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan ☐ Aynan qaysi jihat o‘rganilmagani aytilgan ☐ Hajmi tayanch doktorantura doirasiga sig‘adi ☐ Shu masala maqsadga asos bo‘lgan	___ / 6
2. Maqsad va vazifalar		**12**
2.1 Maqsad	☐ Bitta asosiy, umumlashtiruvchi maqsad bor ☐ Maqsad aniqlangan muammoga mos ☐ Kutilayotgan ilmiy natija yo‘nalishini bildiradi ☐ Mavzu nomini takrorlamaydi	___ / 4
2.2 Vazifalar	☐ Vazifalar maqsadga qaratilgan ☐ Ilmiy mazmunga ega ☐ Bir-birini takrorlamaydi ☐ Mantiqiy ketma-ketlikda	___ / 4

Ko‘rsatkich	Nimalar bo‘lishi kerak	Ball
2.3 Muammo, maqsad va vazifalar bog‘liqligi	☐ Maqsad hal bo‘lmagan masaladan kelib chiqqan ☐ Har bir vazifa maqsadga xizmat qiladi ☐ Muammoga aloqasiz vazifa yo‘q ☐ Vazifalar bajarilsa, maqsadga erishish mantiqan asoslangan	___ / 4
3. Obyekt, predmet va qamrov		**8**
3.1 Obyekt	☐ Aniq belgilangan ☐ Mavzu va maqsadga mos	___ / 2
3.2 Predmet	☐ Obyektning bevosita o‘rganiladigan jihatini bildiradi ☐ Maqsadga mos	___ / 2
3.3 Obyekt va predmet bog‘liqligi	☐ Mazmunan farqlangan ☐ Predmet obyekt doirasida	___ / 2
3.4 Qamrov	☐ Hudud, vaqt, ma’lumot, tanlanma yoki tajriba qamrovi belgilangan ☐ Uch yillik tadqiqotga sig‘adi	___ / 2
4. Metodologiya va usullar		**20**
4.1 Metodologik yondashuv	☐ Umumiy yondashuv ko‘rsatilgan ☐ Maqsadga mos ☐ Bosqichlar metodologik jihatdan bog‘langan ☐ Tanlash sababi asoslangan	___ / 4
4.2 Usullar	☐ Asosiy usullar ko‘rsatilgan ☐ Obyektga mos ☐ Predmetga mos ☐ Maqsadga olib boradi ☐ Aloqasiz usul keltirilmagan ☐ Tanlash sababi tushuntirilgan	___ / 6
4.3 Vazifa, usul va natija	☐ Asosiy vazifalarga usul biriktirilgan ☐ Qaysi usul qaysi vazifa uchunligi aytilgan ☐ Usuldan qanday ma’lumot yoki natija chiqishi tushuntirilgan ☐ Uchalasi mantiqan bog‘langan	___ / 4
4.4 Ma’lumotlar	☐ Qanday olinishi ko‘rsatilgan ☐ Qayta ishlash usuli belgilangan ☐ Tahlil tartibi keltirilgan	___ / 3
4.5 Amalga oshirish imkoniyati	☐ Zarur ma’lumot, material yoki baza ko‘rsatilgan ☐ Asosiy vosita va imkoniyatlar belgilangan ☐ Tayanch doktorantura doirasida bajarilishi asoslangan	___ / 3
5. G‘oya va kutilayotgan ilmiy ahamiyat		**15**
5.1 Tadqiqot g‘oyasi	☐ Asosiy g‘oya aniq aytilgan ☐ Aniqlangan masalaga qaratilgan ☐ Nima aniqlanishi, tekshirilishi yoki asoslanishi ko‘rsatilgan ☐ Tanlangan metodologiya bilan tekshirsa bo‘ladi ☐ Vazifalar ro‘yxatini takrorlamaydi	___ / 5

Ko‘rsatkich	Nimalar bo‘lishi kerak	Ball
5.2 Mavjud tadqiqotlardan farqi	☐ Mavjud yondashuv yoki holat ko‘rsatilgan ☐ Farq qiladigan yoki to‘ldiradigan jihat aytilgan ☐ Farq manbalar tahliliga bog‘langan ☐ “Ilk bor”, “mutlaqo yangi” o‘rniga aniq farq yozilgan ☐ Tadqiqotning mavjud ishlar orasidagi o‘rni asoslangan	___ / 5
5.3 Ilmiy ahamiyat	☐ Qaysi bilim to‘ldirilishi ko‘rsatilgan ☐ Qaysi masalaga aniqlik kiritilishi aytilgan ☐ Fan sohasi bilan bog‘langan ☐ Ahamiyat aniq mazmunda yozilgan ☐ Kerak bo‘lsa, keyingi tadqiqot yoki amaliyot uchun foydasi ko‘rsatilgan	___ / 5
6. Bosqichlar va ish rejasi		**10**
6.1 Asosiy bosqichlar	☐ Bosqichlar belgilangan ☐ Mantiqiy ketma-ketlikda	___ / 2
6.2 Uch yillik reja	☐ Ishlar uch yilga taqsimlangan ☐ Yillar va bosqichlar bir-birini davom ettiradi	___ / 2
6.3 Oraliq natijalar	☐ Bosqichlar oxirida natija belgilangan ☐ Natijalar keyingi ishlar bilan bog‘langan	___ / 2
6.4 Yakunlash va himoya	☐ Natijalarni umumlashtirish va dissertatsiyani yakunlash bor ☐ Muassasada dastlabki ekspertiza rejalashtirilgan ☐ Himoyaga taqdim etish va kengashda himoya bor	___ / 3
6.5 Rejaning real ekani	☐ Hammasini uch yilda bajarish mumkinligi asoslangan bo‘lsa, 1 ball; aks holda 0	___ / 1
7. Imkoniyat va yakuniy asoslash		**5**
7.1 Zarur imkoniyatlar	☐ Ma’lumot, material, obyekt yoki baza ko‘rsatilgan ☐ Vosita yoki resurslar belgilangan	___ / 2
7.2 Bajarish imkoniyati	☐ Muddatda bajarish mumkinligi asoslangan ☐ Hajm va imkoniyatlar mos	___ / 2
7.3 Taklifning yaxlitligi	☐ Muammodan ish rejasigacha mantiq uzilmasa, 1 ball; jiddiy ziddiyat bo‘lsa, 0	___ / 1
8. Og‘zaki taqdimot va savol-javob		**10**
8.1 Muammo, dolzarblik, o‘rganilganlik bo‘yicha savol	2 ball: savolga bevosita, to‘liq va asoslangan javob. 1 ball: asosiy javob bor, lekin muhim jihat ochilmagan. 0 ball: javob yo‘q, savolga aloqasiz yoki o‘z fikrini tushuntira olmadi.	___ / 2
8.2 Maqsad va vazifalar bo‘yicha savol	2 ball: savolga bevosita, to‘liq va asoslangan javob. 1 ball: asosiy javob bor, lekin muhim jihat ochilmagan. 0 ball: javob yo‘q, savolga aloqasiz yoki o‘z fikrini tushuntira olmadi.	___ / 2
8.3 Metodologiya va usullar bo‘yicha savol	2 ball: savolga bevosita, to‘liq va asoslangan javob. 1 ball: asosiy javob bor, lekin muhim jihat ochilmagan. 0 ball: javob yo‘q, savolga aloqasiz yoki o‘z fikrini tushuntira olmadi.	___ / 2
8.4 G‘oya va ilmiy ahamiyat bo‘yicha savol	2 ball: savolga bevosita, to‘liq va asoslangan javob. 1 ball: asosiy javob bor, lekin muhim jihat ochilmagan. 0 ball: javob yo‘q, savolga aloqasiz yoki o‘z fikrini tushuntira olmadi.	___ / 2

Ko‘rsatkich	Nimalar bo‘lishi kerak	Ball
8.5 Reja va imkoniyat bo‘yicha savol	2 ball: savolga bevosita, to‘liq va asoslangan javob. 1 ball: asosiy javob bor, lekin muhim jihat ochilmagan. 0 ball: javob yo‘q, savolga aloqasiz yoki o‘z fikrini tushuntira olmadi.	___ / 2
Jami		**___ / 100**